

**MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR YORDAMIDA HURMAT
IFODALANISHINING QIYOSIY TAHLILI**

To‘lanboyeva Gulsanam Azizjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

gulsanamtulanboeva88@gmail.Com

Gulbahor Rozikova Zaylobidinovna

Farg‘ona davlat universiteti professori

groziqova2020@gmail.com

Annotatsiya

Madaniyatning biror bo‘lagini ifodalovchi so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari, gaplar, matnlar ba‘zan butun bir asarlar milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Chunki xalqning madaniyati aynan uning tili vositasida yuzaga chiqadi va dunyoga taniladi. Osiyo xalqlarining yashash sharoitlari, turmush tarzi, madaniy o‘ziga xosligi, mentaliteti Yevropa millatlarinikidan keng miqyosda farq qiladi.

Abstract

Words, phrases, phrases, sentences, texts representing a part of culture, sometimes whole works are national-cultural units. Because the culture of the people comes to the surface through its language and is known to the world. The living conditions, lifestyle, cultural identity, and mentality of Asian peoples differ widely from those of European nations.

Абстрактный

Слова, словосочетания, словосочетания, предложения, тексты, представляющие часть культуры, а иногда и целые произведения, являются национально-культурными единицами. Потому что культура народа выходит на поверхность через его язык и известна миру. Условия жизни, образ жизни, культурная самобытность и менталитет азиатских народов сильно отличаются от европейских народов.

Kalit so‘zlar

Madaniyat, milliy-madaniy birliklar, o‘zbek romanchiligi, so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalar, gaplar, ingliz va o‘zbek tilida milliy-madaniy birliklar

Keywords

Culture, national-cultural units, Uzbek novels, words, phrases, phrases, sentences, national-cultural units in English and Uzbek

Ключевые слова

Культура, национально-культурные единицы, узбекские романы, слова, словосочетания, словосочетания, предложения, национально-культурные единицы на английском и узбекском языках.

Madaniyatning biror bo‘lagini ifodalovchi so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari, gaplar, matnlar ba‘zan butun bir asarlar milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Chunki xalqning madaniyati aynan uning tili vositasida yuzaga chiqadi va dunyoga taniladi. Osiyo xalqlarining yashash sharoitlari, turmush tarzi, madaniy o‘ziga xosligi, mentaliteti Yevropa millatlarinikidan keng miqyosda farq qiladi va bu farqlarni biz ushbu jamiyat vakillari tomonidan yaratilgan asarlar: adabiyot namunalari, kinofilmlar, seriallar va shu kabilar misolida ko‘rishimiz mumkin. Milliy-madaniy birliklarda dinning ifodalanishini ko‘plab ingliz va o‘zbek asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Xristian dinining elementlarini, “Injil” danolingan ma’lum bir parchalarni “Cho‘qintirgan ota” asari orqali, buddaviylik, hinduiylik elementlarini hind millatining o‘lmas namunasi “Ramayana va Maxabxorata” asarlarida yoki o‘zbek xalq dostonlari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” yoki Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarlarida islomiy o‘ziga xosliklarni ko‘rishimiz mumkin. Yoki o‘zbek romanchiligining tamal toshini qo‘ygan, qimmatli durdona asar “O‘tkan kunlar” romani nafaqat diniy tushunchalarni balki o‘zbek millatining, jamiyatining, o‘zbek oilasi madaniyatining eng inja jihatlarini go‘zal tarzda yoritib bergan.

O‘tkan kunlar

“...Og‘ir tabi’atlik, ulug‘g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino vajihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi.

Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbekhojining o‘g‘li — Otabek. ...” [Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar: roman – Toshkent:Yangi kitob, 2022. – B.2.]

“... ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuzbesh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig‘ina davlatmand bo‘lsaham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» debshuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otig‘a taqilg‘an laqabniqo‘shib aytmalar, yolg‘iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydilar. HomidningOtabek bilan tanishlig‘i bo‘lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh— Ziyo shohichiningqaynisi, Rahmatning tog‘asi. ...”

Birinchi ta`rifda Otabekka nisbatan berilgan ta`rif, ya`ni asarning bosh qahramonlaridan biri. Ham jisman, ham ma`nan yetuk oliy mansabli oilaning o‘ziga munosib farzandi, lekin ikkinchi ra`rif esa ushbu asar qahramonlaridan biri Otabekning tamomila aksi bo‘lgan Homidning ta`rifi. Ushbu ta`riflarni o‘qish ham ularning qay darajadagi saviyaga, madaniyatga ega ekanini anglash uchun kifoya.

“... Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi. — Bizni kechirasiz, bek aka, — deb Rahmat uzr aytdi, — vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik. ...”

**“... Yana bir necha vaqt jim qoldilar.
— Endi biznikiga qachon mehmon bo‘lasiz, bek aka?...”**

“Bek aka” – ushbu murojaat shakli Otabekka nisbatan hurmatni, uning beklarga mansub ekanini, unga alohida hurmat ko‘rsatilishini ifodalaydi. Ha, to‘g‘ri bu Otabekni mansabidan kelib chiqib avvalo, ammo aslida u bu kabi hurmatlashga tamomila arziydigan shaxsni gavdalantirgan.

- **Tuzukmisiz, ota? — Xudoga shukur, — dedi Hasanali, — boyag‘idan bir oz yengilladim. Mazmuni istekkan ekan. Ba‘zi yumushlar buyursam...**
- **Buyuringiz, o‘g‘lim.**

- **Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.**
- **Xo‘b, begim. ...” [Yuqoridagi manba. – B.2.]**

**“... Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o‘tirgan Hasanali javob berdi:
— Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna bo‘lsa to‘ppa-to‘g‘ri yigirma to‘rt yoshgaqadam qo‘yadilar.**

Ushbu dialoglarda ikki xil mansab, hurmat va hurmatdan-da yaqinroq tuyg‘ular chorraxasini o‘zida mujassamlashtirgan. Hasanali qul esa-da, uning ma`naviy dunyosining boyligi, Otabekka xuddi ota kabi ekanligi tufayli Otabek unga hurmat bilan “ota” deya murojaat qilmoqda. Xuddi shu yaqinlik nuqtai nazari o‘laroq Hasanali ham Otabekka “o‘g‘lim” deb javob qaytarmoqda. Lekin, bu yerda qul va xo‘jayin munosabatlari ham mavjud bo‘lib, 60 yoshiga qaramasdan Otabek undan choy damlashini yumush o‘laroq buyurmoqda. Ammo bu buyruq Hasanaliga zarra miqdorda og‘ir botgani yo‘q, Otabekka “begim” deya javob qaytardi. Mansab, hurmat, biroz erkalash kabi ma’nolar ushbu so‘zda mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mengliyev, G.Tojiyeva. Tilshunoslikka Kirish. (5A220100 – O‘zbek filologiyasi bakalavri yo`nalishi uchunma’ruza matni)- Qarshi-2007. –B. 21.
2. Sh.Aripova. So'z, nutq va notiqlik: [Logopedik ish]//Sog'lom avlod uchun. – 2013. –No 2. – B. 15–17.
3. Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar: roman – Toshkent: Yangi kitob, 2022. – B.2.
4. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(3).